

**GANDBOL SPORTINI RIVOJLANISHI VA O’ZBEKISTONGA KIRIB  
KELISHI**

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy fanlar fakulteti jismoniy  
madaniyat yo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Sodiqov Elbek Ne’matillo o’g’li**

*E-mail:sodiqov1134@gmail.com*

**4**

**Annotatsiya:** *Gandbol sport turi butun dunyoda juda tez rivojlanib borayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada gandbol sportini kelib chiqishi, rivojlanish yo’li va O’zbekistonga kirib kelishi haqida so’z boradi.*

**Kalit so’zlar:** *Gandbol, Holger Nielsen, Gandbol maydoni, XHGF, IHF, Federatsiya, Spartakiada, Olimpiada.*

**Annotation:** *Handball is one of the fastest-growing sports in the world. This article discusses the origin, development path, and introduction of handball to Uzbekistan.*

**Keywords:** *Handball, Holger Nielsen, Handball field, IHGF, IHF, Federation, Spartakiad, Olympics.*

**Аннотация:** *Гандбол является одним из самых быстро развивающихся видов спорта во всем мире. В данной статье рассматриваются происхождение, путь развития и проникновение гандбола в Узбекистан.*

**Ключевые слова:** *Гандбол, Холгер Нильсен, Гандбольная площадка, МХГФ, ИХФ, Федерация, Спартакиада, Олимпиада.*

Zamonaviy sport turlari orasida gandbol o'zining jamoaviyligi, tezkorligi va yuqori darajadagi jismoniy hamda taktik tayyorgarlikni talab qilishi bilan alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda gandbol dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng rivojlangan bo'lib, xalqaro miqyosda yirik musobaqalar o'tkazilmoqda. Dastlab Germaniya, Daniya va Shvetsiya hududlarida ommalasha boshlagan.<sup>117</sup> Keyinchalik uning qoidalari takomillashib, professional sport turi sifatida rivojlandi. Bugungi kunda gandbol nafaqat Yevropa, balki Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida ham keng tarqalgan sport turlaridan biri. O'zbekistonda ham mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Gandbol sport turi tez va shiddat bilan rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri bo'lib, yurish yugurish sakrash uloqtirish kabi jismoniy sifatlarni rivojlantiradi. Gandbol (inglizchada: Handbol; hand-“qol”, ball-“top”) yoki qo'l topi degan manolarni anglatadi. Gandbolning kelib chiqishi yevropa hisoblanadi. 1898- yilda O'zi daniyalik bo'lgan ayollar gimnaziasi o'qituvchisi Holger Nielsen o'zining dars mashg'ulotlarida

<sup>117</sup> Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A. “Gandbol”. – Toshkent: O’zDJTI nashriyoti, 2005. – 120 b.

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

Xandbol (qo‘l to‘pi) deb nomlangan o‘yinni o‘ynata boshladi. Bu o‘yinga o‘shash bo‘lgan “xazena” deb nomlangan o‘yin Chexiada ham o‘ynalgan va germaniyada ham “rafbar” degan shunga o‘xshash o‘yin o‘nalgan. Ushbu o‘yin o‘zaro musobaqalashgan holda to‘pni bir biriga uzatish va darvozaga uloqtirishdan iborat bo‘lgan. Gandbol maydoni kattaligi 40x20 m li maydonda og‘irligi 325-475 g, aylanasi 54-58 sm bo‘lgan charm top yordamida jamoada 7 kishidan tarkib topgan o‘yinchilar o‘zaro musobaqalashgan. O‘yin vaqti kattalar uchun 30 daqiqalik ikkita bo‘limdan iborat. Gandbolning zamonaviy shakli bo‘yicha birinchi o‘yin 1919-yilda germaniyada o‘tkazilgan deb hisoblanadi. Bazi manbalarda ayollar o‘rtasida dastlabki basketbol o‘yinlari 1900-yillar boshida Daniya va Germaniyada o‘tkazilganligi haqida ham aytib o‘tiladi. Birinchi bo‘lib 1904-yili Daniya gandbol federatsiyasi tashkil topadi. Gandbol o‘yininig dastlabki qoidalari esa 1906-yili kopengagen shaxrida nashr etildi. Jamoaviy gandbo‘l o‘yininig 11x11 shakli 1917-1919 yillarga to‘gri keladi. U paytda futbol va basketbol o‘yinlari birlashtirilib qizlar uchun mo‘ljallangan o‘yin o‘ylab topilgan. Ushbu qoidalar muallifi ham X. Nielsen hisoblanadi. 1923-yilda musobaqa qoidalari o‘zgartirishlar kiritilib “uch qadam” va “uch soniya” kabi yangiliklar kiritildi. Bu o‘zgarishlar o‘yin tempini oshishiga va yanada qiziqarli bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro Havaskorlar Gandbol federatsiyasi (XHGF) 1928-yilda Gaagada tashkil etilgan. Bu Federatsiyaga dastlab 11 ta davlat azo bo‘lgan, oradan 2 yil vaqt o‘tgach 20 ta davlat kirgan. Hozirgi kunda Xalqaro gandbol federatsiyasi (inglizcha: International Handball Federation, qisqartma. IHF) — jahon gandbolini boshqaruvchi tashkilot. 209 milliy federatsiyani birlashtiradi. Uning shtab-kvartirasi Shveysariyaning Bazel shahrida joylashgan. IHF prezidenti Hasan Mustafo (Misr) sanaladi. Sobiq ittifoqda qo‘l to‘pi bo‘yicha birinchi yirik musobaqa 1928 yili I chi butun ittifoq spartakiadasi doirasida o‘tkazilgan. 1955 yilga kelib butun ittifoq qo‘l topi federatsiyasi tashkil topgan.<sup>118</sup> 1962 yildan boshlab ayollar va erkaklar o‘rtasida muntazam ittifoq chempionatlari o‘tkazilib turgan. Gandbol olimpia sport turlari qatoriga 1336-yilda kiritildi. O‘sha paytda gandbol ochiq maydonda o‘ynalgan. Ayollar gandboli esa 1976-yilda Monreal olimpiadasidan boshlab kiritilgan. Ikkinchi jahon urushlarining boshlanishi boshqa sport turlari kabi Gandbolning ham rivojlanishini toxtatib qo‘ydi. Havaskorlar federatsiyasi ham o‘z faoliyatini toxtatdi.<sup>119</sup> Urush tugashi bilan Yangi Xalqaro gandbol federatsiyasi XGF tashkil topishi 1946-yil hisoblanadi. Bu Xalqaro federatsiya o‘yin rivojlanishiga katta burilish yasadi. Ushbu federatsiyaning ta‘sis kongressida o‘yin qoidalari o‘zgartirishlar kiritildi va erkaklar o‘rtasida 11x11 gandbol o‘yininig jahon birinchiligi o‘tkazilishi belgilandi. 1948-yili Fransiyada jahon birinchiligi o‘tkazildi. Bu birinchilikda 12 ta jamoa qatnashib Shvetsiya terma jamoasi 1-o‘rinni egalladi. shuningdek 1949-yilda ham Budapesh shaxrida bo‘lib o‘tgan ayollar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Jahon birinchilida Vengriya ayollar terma jamoasi birinchi o‘rinni egalladi. Keyinchalik esa Jahon birinchiliklari har 4 yilda bir marotaba

<sup>118</sup> “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi”. – Toshkent, 2010. – 180 b.

<sup>119</sup> Saminov D.M. “Qo‘l to‘pi tarixi va rivojlanishi”. Ilmiy maqola, 2025. – 15 b.

## “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

o'tkazilishi elon qilindi. Umumiy qilib aytganda hammasi bo'lib 11x11 otkazilgan gandbol o'yini bo'yicha 7 ta erkaklar va 3 ta ayollar birinchiligi o'tkazilgan. 7x7 gandbol o'yinlari rivojlanishi ham “Katta gandbol” o'yini bir vaqtning o'zida rivojlanib borgan. 1934-yilda Birinchi halqaro qoidalar qabul qilingan. “Kichik gandbol” o'yinlari Skandinaviya davlatlari sportchilarida ko'proq qiziqish uyg'otdi. Daniya va Shvetsiya terma jamoalari o'rtasida 1936-yilda o'yin bo'lib o'tdi, unda daniyaliklar g'alaba qozonishdi. Xalqaro gandbol federatsiyasi 11x11 gandbol oyinlarining rivojlanishi uchun katta etibor qaratdi. lekin bu oyinga bo'lgan qiziqish kamayib “kichik gandbol” rivojlana boshladi. 1954-yilda bor yo'gi 4 jamoa raqobatlashdi. Bunda mezbonlar g'alaba qozondi. 1957-yili ayollar o'rtasida Yugoslaviyada 7x7 gandbol o'yini bo'yicha jahon birinchiligi ochiq maydonda o'tkazildi. Bu birinchilikda Chexoslovakiya terma jamoasi birinchilikni qo'lga kiritdi. 1936-yili Berlinda XI yozgi olimpia o'yinlarida 6 ta erkaklar jamoalari raqobatlashdilar. Keyingi olimpia o'yinlari dasturiga gandbol sport turi kiritilmagan. Faqatgina 1972 yili Myunhenda bo'lib o'tgan XX olimpiada o'yinlarida erkaklar jamoasi musobaqa dasturiga kiritildi. Monreal shahrida 1976 yil bo'lib o'tgan XXI olimpia o'yinlarida ayollar jamoalari ham kiritildi. Bu yillardan keyin gandbol o'yini butun dunyo bo'ylab ommalashib ketdi.<sup>120</sup>

O'zbekiston respublikasida birinchi bo'lib 1938-yilda qo'l to'pi bo'yicha champion at bo'lib o'tdi. 1960-yilga qadar o'zbekistonda toshkentdagi oliy harbiy bilim yurtida tahsil oluvchi kursantlar orasida 11x11 qo'l to'pi bo'yicha musobaqalar o'tkazilib kelingan. keyinroq Xarkov shaxrida 1960-yili yoshlar o'rtasida qo'l topi bo'yicha butun ittifoq musobaqalari o'tkazildi. Shunday qilib bu musobaqalardan so'ng respublikamiz hududida qo'l to'piga qiziqish yanada ortib bordii va rivojlanishi uchun katta turtki bo'di. 1960-yilda O'zbekistonda birinchi bo'lib O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida qo'l to'pii mutaxassisligii bo'limi ochildi. toshkent shaxar birinchiliklarida 1960-yildan boshlab 16-20 jamoa qatnasha boshladi va O'zbekistondgi qo'l to'pi sportchilarining sobiq ittifoq musobaqalarida qatnasha boshlagan yili deb qayd etildi. 1962 yilda Tbilisi va Sverdlov shaxrida o'tkazilgan ikkinchi sobiq ittifoq chempionatida erkaklar o'rtasida o'zbekistonning qo'l to'pi terma jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etdi va oliy ligaga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Ozbekiston terma jamoasini tashkil etgan F. Abdurahmonov, M. Jukov, B. Pikin, V. Ogirenko, M. Magdullin, M. Sirotenko, A. Oleynikov, M. Sirotenka, N. Rahmatov, A. Pantasenko, va A. Sodiqov Toshkent irrigatsiya instituti va O'Zdji jamoalarining vakillari edi. Sobiq ittifoq chempionatlarida jamoalarimizga V. Lemeshkov va V. Sevastyanovlar murabbiylik qilgan. 1972-1973 yillarda O'zbekiston qo'l to'pchilkari yaxshi natijalarni qo'lga kiritgan. O'zJTI jamoasi talabalar o'rtasidagi butun ittifoq musobaqalarida uch karra g'oliblikni qo'lga kiritgan. O'zbekiston qizlar jamoasi ham sekin asta rivojlanib 1975 va 1983 yillarda yuqori natijalarga erishdilar. Sobiq ittifoqda oliy liga jamoalari o'rtasida o'tkazilgan chempionatda oltinchi o'rinni egalladilar. Bu musobaqadan so'ng 20dan ortiq qizlarimiz sport ustasi unvoniga sazovor bo'ldilar. Bular orasida O'zbek

<sup>120</sup> O'zbekiston sport tarixi (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2015. – 90 b.

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

qizi Marg’uba Artiqboyevna O’z ekistonda birinchi bo’lib bu unvonga sazovor bo’ldi. Dastlabki yoshlar va o’smirlar sport maktablari Toshkentda 60-yillarda ochildi. Bu ittifoq maktab o’quvchilari spartakialarida muntazam qatnashib keldi. 1975-yili qizlar 3-o’rin, o’smirlar esa 1979-yili oltinchi o’rinni egalladi. O’zbek qo’l topchilarini tayyorlashda qilgan mehnatlari uchun F. Abdurahmonov, V. Kapliniskiy, V. Ogirenko, E. Golovchenko, V. Konoplev, V. Izaak kabi shaxslar O’zbekistonda hizmat ko’rsatgan murabbiy unvoni bilan taqdirlandi.

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng gandbo’l sport turiga alohida etibor qaratildi va qisqa muddatda bu sport turining ommalashib ketishiga turtki bo’ldi. O’quvchi yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg’ulotlariga ommaviy jalb qilishni taminlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan 1999-yil 21-mayda qabul qilingan Vazirlar maxkamasiining “O’zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’g’risida”gi 2711-sonli qaroriga binoan mamlakatda kadrlar tayyorlash milliy modeliga asoslangan va uning talablariga uyg’unlashgan uzluksiz talimning ommaviy sport tizimi yaratilib, amalga oshirila boshladi. 1992-yilga kelib O’zbekistonda qo’l to’pi federatsiyasi tashkil etildi. 1992-yildan boshlab O’zbekistonda erkaklar va ayollar o’rtasida muntazam chempionatlar o’tkazilib turdi. 1993-yilda esa xalqaro va osiyo federatsiyasiga qabul qilindi. 1997-yilda o’tkazilgan Iordaniyadagi Osiyo chempionatida qatnashib, sport o’yinlari bo’yicha O’zbekiston jamoalari o’rtasida birinchi marta jahon chempionatida qatnashish huquqiga ega bo’ldi. 1997-yili Germaniyada o’tkazilgan Jahon chempionatida Xitoy, Urugvay va Braziliya kabi jamoalarni ortda qoldirib O’zbekistonning qo’l topini dunyoga tanitdi desak bo’ladi. qo’l to’pi bo’yicha 16ta erkaklar va 14ta ayollar jamoasi buxoroda o’tkazilgan “Universiada 2002” dasturiga birinchi marta kiritildi. 2004-yil samarqandda 2007-yil toshkentda o’tkazilgan universiada musobaqasida Toshkent shaxri jamoasi g’olib deb topildi. 2003-yilga kelib “talaba” sport jamiyati tuzildi, bu esa barcha sport turlari qatorida qo’l topi bo’yicha Oliy o’quv yurtlarida musobaqalar tashkil etilishiga sabab bo’ldi.<sup>121</sup>

2005-yildan boshlab qo’l to’pi O’zbekistonda yangi bosqichni boshladi. O’zbekistonda qo’l to’pi federatsiyasining bosh kotibi I.I. Mathalikov saylangandan so’ng O’zbek qo’l topi jamoalari xalqaro musobaqalarda faol, muntazam ishtirok etib kelmoqda. 2011-yilning 3-11-yanvar kunlari hindiston davlati chennay shaxrida o’tkazilgan 1992-1993-yillarda tug’ilgan yoshlar o’rtasida qo’l to’pi sport turi bo’yicha halqaro trofeya kubogida ishtirok etib 3-o’rinni egalladi. 2011-yilning 3-9-iyun kunlarida qo’l to’pi bo’yicha 1995-1997-yilda tug’ilgan yoshlar va qizlar o’rtasida rossiyaning tolyatti shaxrida o’tkazilgan xalqlar aro turnirda ham 3-o’rinni egalladi. 2012-yilning 23-yanvar 8-fevral kunlari Saudiyaning Jidda shaxrida qo’l to’pi bo’yicha 2013-yil Ispaniyada bo’lib o’tadigan jahon chempionatiga yo’llanma beruvchi saralash musobaqasida vatanimiz sharafini yanada yuqori pog’onalarga ko’tarib sportchilarni xalqaro maydonlarda malaka va ko’nikmalarini

<sup>121</sup> Saminov D.M. “Qo’l to’pi tarixi va rivojlanishi”. Ilmiy maqola, 2025. – 15 b.

# “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Aprel, 2026-yil

oshirib 14ta davlat ichida 9-o’rinni qo’lga kiritdilar.2012-yil 30-iyun 13-iyul kunlari qatar (doxa)shaxrida qo’l to’pi boyicha yoshlar o’rtasida 2013-yilda bosnyada bo’lib o’tadigan Jahon chemoianatiga yo’llanma beruvchi saralash musobaqasida vatanimiz sharafini yanada yuqori pog’onalarga ko’tarib,14ta davlat ichida O’zbekiston yoshlari va qizlar terma jamoasi 12-o’rinni qolga kiritdilar.2014-yilda 10-17-mart kunlarida Qozogistonning astana shahrida qizlar ortasida qo’l to’pi boyicha bo’lib o’tkan halqaro turnirda vatanimiz bayrog’ini yuqorilarga ko’tarib, 8ta davlat ichida O’zbekiston qizlar milliy terma jamoasi faxirli 3-o’rinni egalladilar.2014-yil 6-12-iyun kunlari tolyati(Rossia) shaxrida qo’l topi bo’yicha bo’lib o’tgan yoshlar va qizlar o’rtasida XIII-xalqaro bolalar festivalida Vatanimiz sharafini yanada yuqorilarga ko’tardilar desak bo’ladi.bu festivalga 178dan ortiq jamoalar qatnashgan bo’lib,ulardan yoshlar va qizlar milliy terma jamoamiz faxirli 3-o’rinni egallab yaqqol ko’zga tashlandilar.2014-yilning 22-30-dekabrida Singapurda erkaklar ayollar terma jamoalari o’rtasida 2-janubiy sharqiy Osiyo mamlakatlari chemionatida o’zaro kuch sinashdilar.Bu nufuzi baland bo’lgan musobaqada Yaponia, Gong Kong, Singapur, Tayland, Tayvand va O’zbekiston davlatlaridan 6ta ayollar va 7ta erkaklar jamoalari qatnashdi. Bu musobaqada sportchilarimiz muvaffaqiyatli ishtirok etib, erkaklar va ayollar terma jamoalarimiz hammadan yuqori natija yani 1-o’rinni qo’lga kiritdi va yurtimizga oltin medal bilan qaytdilar.musobaqalarning yakuniga kora O’zbekistonning erkaklar terma jamoasi darvozboni Zohidjon Dadajonov chempionatning eng yaxshi darvozaboni,shunningdek Dilshod Turopov chempionatning eng yaxshi o’yinchisi va raqib jamoalariga 68ta to’p kiritib, chempionatning to’p urari naminatsiyasini qo’lga kiritdi.Qizlar terma jamoasini azosi ,Elena Udiryakova Dilbar Baxromova chempionatning eng yaxshi o’yinchisi deb topildi.Shuningdek dilbar baxromova bu chempionatning eng yaxshi o’yinchisi va raqib jamoalariga 53ta to’p kiritib, chempionatning to’p urari degan naminatsiyani qo’lga kiritdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A. “Gandbol” (darslik). – Toshkent: O’zDJTI nashriyoti, 2005.
2. Pavlov Sh.K., Abdurahmonov F.A., Azizova R.I. “Gandbol (musobaqa qoidalari, ularni tashkil etish va o’tkazish tizimi)”. – Toshkent: Lider Press, 2007.
3. Abdurahmonov S. “Gandbolchilarning sport tayyorgarligi tizimi”. – Eurasian Journal of Academic Research, 2023.
4. Salaydinov B. “Sport o’yinlari – qo’l to’pi”. – Eurasian Journal of Academic Research, 2022.
5. Saminov D.M. “Qo’l to’pi (gandbol) haqida: tarixi, qoidalari va bugungi holati”. – Modern Education and Development, 2025.
6. O’zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi materiallari. – Toshkent.

## “ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

---

30-Aprel, 2026-yil

7. “Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi” (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Oliy ta’lim muassasalari nashri.

8. “O‘zbekiston sporti tarixi” – o‘quv qo‘llanma. – Toshkent.